

PEDAGOG IMIJI

Yarova Sevara

Ilmiy rahbar:

Ismatova Shahzoda Jonibek qizi

Hamidullayeva Lobar Hayrullayevna

"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti 1-bosqich talabalari.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy pedogog va uning obrazi, hozirgi zamon o'qituvchilari qanday bo'lishi kerakligi va pedagog shaxsiga qo'yiladigan talablar va uning bilim darajasi va mahorati, bundan tashqari har bir zamonaviy o'qituvchi ega bo'lishi kerak bo'lgan sifatlar haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *O'qituvchilik kasbi, zamonaviy o'qituvchi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, motivatsiya, notiqlik, notiqlik sa'nati, o'zini o'zi tanqid qilish, pedagog, interaktiv dars, muvaffaqiyat, tadqiqot.*

KIRISH:

O'qituvchilik kasbi yuksak sharafli kasb. Ustoz yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi bilim beruvchi murabbiydir. Birinchi bo'lib insonga Vatan, Vatanga mehr so'zlarining ma'nosini tushuntirgan ham o'qituvchi hisoblanadi. Shuning uchun qadim zamonlardan beri o'qituvchilik kasbini hamma ardoqlab, hurmat, qilib kelmoqda.

Misol uchun shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur davrida ustozga hurmat shu qadar kuchli bo'lganki u g'azal mulkingning sultoni mir Alisher Navoiy ko'rmasdan o'z ustozini sifatida tan olgan va hurmat qilgan. Hozirgi rivojlanayotgan O'zbekistonda ham o'qituvchilik kasbiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunga Prezidentimizning "O'qituvchini hurmat qilmaganni men ham hurmat qilmayman" deb aytgan gaplari yaqqol misol bo'la oladi.

O'qituvchilarning amaliy faoliyati juda ko'pdir. Ular darslar olib borishning yanada o'rganilgan usullarini va texnikalarini o'rganib, yangi darsliklar va materiallar tayyorlash, sinflarda interaktiv darslar o'tkazish, sinovlar va imtihonlar tayyorlash, o'quvchilarni boshqarish va motivatsiyani oshirish bilan shug'ullanadilar. O'qituvchilar o'z faoliyatlari orqali o'quvchilarga bilim berishda muvaffaqiyatli bo'lish uchun sabr, sabrli bo'lish, o'quvchilarni tushunish, ular bilan muloqot qilish qobiliyatiga ega bo'lishadi. O'qituvchilar hamkorlik qilish, ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etish va o'zlarini rivojlantirish uchun mustaqil ta'lim oladilar.



O'qituvchi kelajak avlodni, bilimli qilib tarbiyalashni zimmasiga olgan inson hisoblanadi . O'zbekiston mustaqil davlat sifatida jahonga yuz tutar ekan , bu borada o'qituvchilarni ham o'rni alohida.

Shu o'rinda bir savol paydo bo'ladi. Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi zarur? Zamonaviy o'qituvchi o'z mutaxassisligiga oid bilimlar bilan birga pedagogik va psixologik bilimlarni hamda turli fan yo'nalishlari bo'yicha maxsus bilimlarga ega bo'lgan , bir qancha xorijiy tillarda erkin gaplasha oladigan , ayniqsa fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kun sayin rivojlanib borayotgan dunyoda o'qituvchi va pedagoglar o'tkir zehni bilan ulardan erkin foydalana oladigan , o'quvchilar bilan do'stona munosabat o'rnatish kerak. O'qituvchilar bilan do'stona munosabat o'rnatish kerak. O'qituvchilar bilan do'stona munosabat o'rnatish kerak.

Bundan tashqari zamonaviy o'qituvchi va murabbiylar quyidagi sifatlarga ham ega bo'lishi kerak.

1. Bolaga hurmat. Odatda o'qituvchi bolalarni yaxshi ko'rishi va hurmat qilishi kerak. Chunki har bir bolaga o'qituvchi hurmat bilan qarasa o'quvchilarda ham o'qituvchiga nisbatan hurmat, mehr va etibor tuyg'ulari paydo bo'ladi. O'qituvchida ham, o'quvchida ham bir biriga nisbatan bir xil munosabat paydo bo'lgandagina ular birini bilan ishlay oladi va shundagina o'quvchining kelajagidan nimanidir kutsa bo'ladi.

2. O'qituvchi o'zining xizmat ko'rsatayotganini tushunishi. Bu band ko'plab o'qituvchilarni jahlini chiqaradi. Ammo o'qituvchilik kasbi eng obruli va sharafli kasb hisoblanadi va o'qituvchi so'zi iftixor bilan jaranglaydi.

3. Haqiqiy narsalar bilan hurmatga ega bo'lishga tayyor turish. Balandparvoz so'zlar bilan zamonaviy bolalarda taassurot uyg'ota olmaysiz. Qo'rqitish bafoyda -hozirgi bolalar avvalgilar singari har narsadan ham qo'rqavermaydi. Hurmat qozonishning birgina yo'li yaxshi o'qituvchi o'z fanini yaxshi bilishi va o'quvchilarga tushunarli va oson yetkazib bera olishi kerak.

4. O'z vazifasini tushunish . Haqiqiy o'qituvchi o'z o'quvchilariga "google"da yo'q bo'lgan narsalarni o'rgata olishi kerak. Aks holda u vaqtini bekorga sarflagan bo'ladi.

5. O'z -o'zini tanqid qilish. O'qituvchi o'z faoliyati davomida o'z ustida tez-tez ishlab turishi kerak. Va hamma ham xato qilishi mumkinligini , hamma ham adashishini mumkinligi tez tez o'ziga ta'kidlab turishi kerak shundagina u o'qituvchi o'z o'quvchilari uchun eng yaxshi o'qituvchi bo'ladi.

6. Notiqlik sa'nati. O'qituvchining eng asosiy sifati ham aynan mana shunda , o'qituvchi o'z nutqi bilan hammani o'ziga ishontira olishi, hammani o'ziga ergashtira olishi , o'zgalarga ta'sir o'tkaza olishi kerak.

Xulosa:

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hozirgi kunda insonlarga o'z farzandlaridan ko'p narsalarni kutmoqda va bu borada hamma mas'uliyatni o'qituvchilarni zimmasiga yuklab qo'ygan desak yolg'on bo'lmaydi. Bunday vaziyatda o'qituvchilik kasbiga qo'yilayotgan talablar ham oshib bormoqda va bu talablarni amalga oshirish uchun zamonaviy o'qituvchilar o'z ustida ko'proq ishlashi va o'z kasbiy mahoratini yana oshirib borishi , zamonaviy texnologiyalar bilan ham nafas yashamog'i kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Pedagog mahorati,, darslik A.Xoliqov-Toshkent-2011
2. Zamonaviy o'qituvchi va uning obrazi-Dilrabo Ibrohim qizi
3. "Umumiy pedagogika,, B.X.Xodjayev-Toshkent-2017
4. https://library.navoiy-uni.uz/files/umumiy_pedagogika.pdf
5. https://library.navoiy-uni.uz/files/umumiy_pedagogika.pdf